

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ELEKTR  
USKUNALARNI MONTAJ TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST  
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ELEKTR USKUNALARNI MONTAJ TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Elektr uskunalarning montaj texnologiyasi fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Elektr uskunalarning montaj texnologiyasi**

- 1.Elektr uskunalari montaji to‘g‘risida umumiy tushunchalar;
- 2.Elektr qurilmalarida montaj ishlarini tashkil qilish, montaj ishlarida qo‘llaniladigan material va jixozlar, elektr uskunalari montajida tayyorgarlik ishlari, o‘rnatilgan elektr uskunalarni ekspluatatsiyaga topshirish, ishga tushirish-naladka ishlarini tashkil qilish;
3. Elektr tarmoqlar montaji,elektr uskunalari elementlarini o‘rnatish;
4. Elektr mashinalar va transformatorlar montaji;
- 5.Elektr uskunalari montaji, elektr qurilmalar jihozlarning montajidan oldingi sinovlar, elektr yoritish va nurlatish vositalarining montaji va sozlash;
6. Elektr motorlar montaji.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Elektr uskunalari montaji to'g'risida umumiy tushunchalar	Sanoatda korxonalari va uy ro'zg'orda ishlatiladigan elektr uskunalari montaj qilishda va ularni qo'llashda nimalarga ahamiyat berishi kerakligi bo'yicha umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.	5 %	2 ta
2	Elektr qurilmalar montaji, montaj ishlarida o'rnatilgan elektr uskunalarni ekspluatatsiyaga topshirish, ishga tushirish-naladka ishlarini tashkil qilish	Elektr qurilmalar montaji, montaj ishlarida qo'llaniladigan material va jixozlar, elektr uskunalar montajida tayyorgarlik ishlarini tashkil etish va ularni o'rnatish, ekspluatatsiyaga jarayoniga topshirish, ishga tushirish-naladka ishlarini tashkil qilish haqida umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	25 %	10 ta
3	Elektr tarmoqlar montaji, elektr uskunalari elementlarini o'rnatish	Elektr tarmoqlarida montaj ishlarini bajarishning umumiy prinsiplari, elektrmontaj ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi, elektr uzatish havo liniyalar montaji, tayanchlarni yig'ish va o'rnatish, sim va troslar montaji, havo liniya simlarini ulash, havo liniyalarni ishlatilishiga qabul qilish bo'yich nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	25 %	10 ta
4	Elektr mashinalar va transformatorlar montaji	Elektr montaj ishlarini tashkil etish, elektr mashina va transformatorlar montaji, montajdan oldin elektr mashina va transformator qismlarini saqlash, ishga tushirishdagi sozlash ishlarini tashkil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo' biladi va tahlil qiladi.	20 %	8 ta

5	Elektr uskunalari montaji, elektr qurilmalar jihozlarining montajidan oldingi sinovlar, elektr yoritish va nurlatish vositalarining montaji va sozlash	Elektr uskunalarini montaj qilish, elektr qurilmalar jihozlarining montajidan oldingi sinovlar, elektr yoritish va nurlatish vositalarining montaji va ularni sozlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
6	Elektr motorlar montaji	Elektr montaji haqida umumiy ma'lumotlar, elektr matorlarni tashish, tayyorlov ishlari, elektr matorlar montajini bajarilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

#### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test

4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
----	----	--

### VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

### VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. A.D. Raxmatov, N.X Toshpo'lotov Elektrotexnik materiallar va elektr uskunalari montaji: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. /A.D. Raxmatov, N.T. Toshpo'lotov.-T.: «Niso Poligraf» «Voriz nashriyot» 2012y. -224 b.

2. S.K.Vaxobova "Elektr ta'minoti tizimini montaji va ishlatilishi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. Namangan: NamMQI – 2024 y. 257 bet.

3. V.B.Atabekov. Elektr tarmoqlari va kuch elektr qurilmalarini montaj qilish. O'zbekcha nashri 1995-y.184 bet.

4. A.T.Imomnazarov "Sanoat korxonalarining elektr jihozlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash" Toshkent, "Turon-Iqbol", 2006-yil.250-bet.

5. Yu.Otajonov "Elektr tarmoqlarining elektr jihozlarini ta'mirlash texnologiyasi va uni tashkil etish" Toshkent, "Sharq", 2005-yil.330-bet.

6. Pirmatov N.B., O.Z. Toirov., A.E. Bekishev.,M.X. Taniyev., S.M. Yusupov Elektr mashinalarini ekspulatsiyasi, ta'mirlash va sinash Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Toshkent -2025. 211bet.

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.